

O'ZBEKİSTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

2023 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2023 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rningbosarlari: Nodir Jo'raqo'ziev
Ziyoda Teshaboyeva

Mas'ul kotiblar: Ozoda Tojiboyeva
Sanjar Mavlyanov

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farhod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Murtazo Sayidumarov, G'aybullha Boboyorov, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Üşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rghanish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiysiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiylar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editors in Chief: Nodir Jurakuziev
Ziyoda Teshabaeva

Executive secretaries: Ozoda Tajibaeva
Sanjar Mavlyanov

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozenmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Tanju Seyhan, Sabohat Bozorova

Gazeta tilidagi ba'zi standart vositalarning
grammatik-funksional xususiyatlari.....6

Sayalı Sadıqova

Azərbaycan dilində hərbi termin yaradıcılığı.....19

Nurislom Xursanov

Tilshunoslikda diskurs va pragmatikaga aloqador hodisalar.....30

Rəxşanə Babazadə

Eyni kökdən ayrılan mənalar (Azərbaycan və
Türkiyə Türkçələri əsasında).....46

Ehsanullah Quvanch

O'zbek tilining Afg'oniston Islom Respublikasi davridagi
ahvoli va davlat tashkilotidagi o'rni.....60

Adabiyotshunoslik

Ilhom Aslonov

Temuriy hukmdorlar obrazining "Boburnoma"da aks etishi.....73

Gulandom Yuldasheva

Mariya Sabtelni tadqiqotlarida Hirot madaniy muhiti tavsifi.....84

Etnologiya. Etnografiya. Antropologiya

Adhamjon Ashirov

O'zbek xalqi turmush tarzi va og'zaki ijodida ot kulti.....97

San'at

Jamoliddin Jo'rayev

Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul-asror" asari qo'lyozmalariga
ishlangan miniatyurlar xususida.....108

CONTENT

Linguistics

Tanju Seyhan, Sabohat Bozorova	
Grammatical and functional characteristics of some standard tools in newspaper language.....	6
Sayalı Sadıqova	
Creation of military terms in the Azerbaijani language.....	19
Nurislom Khursanov	
Discourse and pragmatics: phenomena in linguistics.....	30
Rəxşanə Babazadə	
Meanings separated from the same root.....	46
Ehsanullah Quvanch	
The status of the Uzbek language during the Islamic Republic of Afghanistan and its place in the state system.....	60

Literature

Ilhom Aslonov	
Reflection of the image of the Timurid rulers in "Baburnama".....	73
Gulandom Yuldasheva	
A description of the cultural environment of Herat in the studies of Maria Sabtelnii.....	84

Ethnology. Ethnography. Anthropology

Adhamjon Ashirov	
The cult of the horse in the oral creativity of the lifestyle of the Uzbek people.....	97

Art

Jamoliddin Juraev	
On the miniatures worked to the manuscripts of Haydar Khorazmi's "Gulshan ul-asrar"	108

SAN'AT
ART

Haydar Xorazmiy “Gulshan ul-asror” asari qo’lyozmalariga ishlangan miniatyuralar xususida

Jamoliddin Jo’rayev¹

Abstrakt

Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” asari qo’lyozma nusxalari dunyoning ko’plab fondlarida saqalanadi. Ularning ayrimlariga asar mazmuniga monand miniatyura ishlangan. Jumladan, Istanbul Milliy kutubxonasidagi nusxada to’qqizta miniatyura mavjud. Britaniya kutubxonasidagi nusxaga esa oltita, Nyu-York jamoat kutubxonasidagi nusxasiga ham miniatyuralar ishlangan. Dublindagi Chester Beatty kutubxonasidagi nusxada sakkizta miniatyura bor.

Ushbu maqolada Haydar Xorazmiy “Gulshan ul-asror” asarining Fransiya milliy kutubxonasida saqlanayotgan qo’lyozmasi va undagi miniatyuralarning tahlili o’z ifodasini topgan. Shuningdek, asar uchun chizilgan miniatyuralarning turli xil albomlardagi nusxalari xususida tahliliy ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: *miniatyura, san’at, asar, qo’lyozma, bezak, tasvir, rang, syujet.*

Kirish

Qo’lyozma asarlar miniatyurasini yaratish san’ati murakkab va ijodiy jarayon bo’lib, rassomdan alohida mahorat talab qiladi. Miniatyuraning go’zalligi rangning yorqin to’yinganligi, shakllar harakatining ifodaliligi, landshaft va me’moriy tuzilmalarning nafisligi bilan belgilanadi. Qo’lyozma asar miniatyurasida inson tasviri yassi ko’rinishda chiziladi, unda soya bo’lmaydi. She’riyatda bo’lgani kabi miniatyurada ham o’rta asrlar san’ati uchun an’anaviy bo’lgan sevimli syujetlarni takrorlash usuli qo’llanilgan. Miniatyura san’atida inson obrazi jamiyat taraqqiyotining tarixiy shart-

¹Jo’rayev Jamoliddin Aminjonovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti.

E-pochta: dzhuraev_dzhamoliddin@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-2337-5767

Iqtibos uchun: Jo’rayev, J. A. 2023. “Haydar Xorazmiy “Gulshan ul-asror” asari qo’lyozmalariga ishlangan miniatyuralar xususida”. *O’zbekiston: til va madaniyat* 1: 108–121.

sharoitlari, davrga xos insonga munosabatni ifodalovchi va badiiy-estetik tasavvurlar bilan uzviy bog'langan.

Miniatyura so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida shunday ta'riflangan: *miniature* - Italiyancha so'z bo'lib - nafis, nozik qilib ishlangan rasm. *Minium* - qizil yoki qizg'ish-jigarrang bo'yoq. O'rta asr qo'lyozma asarlari va kitoblariga bo'yoqlar bilan chizilgan nafis rasm, surat, bezakli bosh harf yoki lavhaga aytilgan. V.Y. Baymiyeva: "Miniatyura juda kichik ish, pozitsion jihatdan to'liq, lekin ustunlik bilan bitta kompozitsion element – kulminatsion, kuchaytirilgan ifoda va hukmronlik muallifning birlashtiruvchi qiyofasida, hamma narsa hikoyachi bilan tez-tez birlashadi" [Баймиева 2016, 10-15], deb ko'rsatadi. A.Kvyatkovskiy esa o'zining "She'riy lug'at"ida miniatyura san'atini "kichik nasr yoki qat'iy tugallangan shakldagi she'riy asar" deb ta'riflagan [Квятковский 1966, 70].

XIV-XV asrlarda Movarounnahr, Xuroson va Eronda, ayniqsa, XV asrning ikkinchi yarmida Hirotda, XVI asrda esa Buxoro va Tabrizda naqshlar va mo'jaz rasmlar bilan bezatilgan qo'lyozma kitoblar ko'plab yaratildi. Abudurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va Kamoliddin Behzod davridagi Hirot madaniyatining yuksalishi va gullab-yashnashida davr va undagi hukmdorlarning, ijod ahlining roli katta bo'ldi. XIV asr ikkinchi yarmi va XV asrning birinchi yarmida Amir Temur va Mirzo Ulug'bek davridagi Samarqand, Hirot va Sherodagi saroy kitobxonalarida ko'plab xattot, naqqosh, musavvirlar faoliyat olib bordi, ijodkorlar moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlandi. Bu ijodiy muhit o'z davrining buyuklari Kamoliddin Behzod, Sulton Ali Mashhadiy kabi musavvir-u xattotlar ijodiy kamolotiga zamin hozirladi [Сулеймонов 1982, 4].

O'rta asr Sharq adabiyoti shunchalik boy va rang-barang bo'lishiga qaramay hamma narsalar ham naqsh va suratlar bilan bezatilavermagan, asarlari mazmuniga ko'ra tanlab bezatilgan. Abu Nasr Ro'dakiy va Umar Xayyom asarlari kamdam-kam bezatilgan. Ba'zi tarixiy solnomalar, masalan, Bayhaqiy yoki Zayniddin Vosifiy asarlari umuman bezatilmagan. Ammo klassik adabiyotning qator asarlari musavvirlarning e'tiborini muttasil tortib kelgan. Firdavsiyning "Shohnoma"si, Nizomiy Ganjaviyning "Xamsa"si, Sa'diy Sheraziyning "Bo'ston" va "Guliston"i, Alisher Navoiyning "Xamsa"lari shular jumlasidan edi [Полякова 1987, 70].

Ana shu davrda yozilgan asarlardan yana biri Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul-asror" asarining qo'lyozma nusxalariga

ishlangan suratlar bo'lib, ularni manba sifatida o'rganish ham badiiy adabiyot va tasviriy san'at uyg'unligini o'rganishga xizmat qiladi.

Turli vazn, qofiyalarda yozilgan usluban va badiiy obrazlari murakkab she'riy asarlarni tasviriy vositalar bilan sharhlash qiyin edi. Biroq syujetga ega epik asarlar miniatyura tasvirlana-yotgan asar uslubiga yarasha o'ziga xos badiiy til va obrazlar sistemasini topa oldi, "muallif so'zi va fikr-u o'ylariga mos tomosha ekvivalenti"ni yaratdi [Полякова 1987, 70].

Ma'lumki, badiiy bezakli qo'lyozmalarни tayyorlash, avvalo, xattot ishidan boshlanadi. Xattot rasm va badiiy bezaklar uchun sahifada alohida oq joy ajratadi. Lekin ba'zi hollarda xattot bilan musavvirning hamkorligida rasm o'rtasiga yoki yuqorisiga, ba'zida pastki qismiga bir necha bayt kiritilishi mumkin. Bir qancha ijodkorlar oylab, ko'z nurini to'kib tayyorlanuvchi badiiy bezakli qo'lyozmalar asosan buyurtma asosida ishlangan. Demak, rasmlar ham buyurtiruvchining saviyasi, didi, dunyoqarashidan kelib chiqqib, uning tavsiyasi asosida asarlarning u yoki bu epizodiga ishlangan. Shuning uchun bir asarning turli qo'lyozmalariga ishlangan miniatyuralar, an'naviyalaridan tashqari ham son, ham mazmun jihatdan biri ikkinchisini takrorlamaydi [Сулеймон 1983, 11].

"Gulshan ul-asror"ning dunyo fondlaridagi nusxalari va ularga ishlangan miniatyuralar


Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul-asror" asari bizgacha bir necha nusxalarda yetib kelganiga qaramasdan barchasiga ham miniatyura bezaklari ishlangan emas. Yuqorida ta'kidlanganidek, mazkur ijodkorning asarlariga chizigan rasmlarning soni va mazmuni ham turlicha. Jumladan, ular quyidagilar:

1. Istanbuldagi Milliy kutubxonanining Ali Amiriy kolleksiyasidagi she'riy asarlar arxiv raqami 951 bilan ro'yxatdan o'tkazilgan nusxada to'qqizta miniatyura bor [Gözütok 2008, 7].
2. Britaniya kutubxonasidagi Or. 3491-raqamli arxivda ro'yxatga olingan nusxada oltita miniatyura mavjud [Rieu 1888, 298-299].
3. Spenser Koll Nyu-York jamoat kutubxonasida 41-raqami bilan ro'yxatga olingan nusxasida ham miniatyuralar bor [Serkan 2019, 3] (Maqola muallifi miniatyura sonini ko'rsatmagan).
4. Dublindagi Chester Beatty kutubxonasida 433-raqamli arxivda ro'yxatdan o'tgan nusxada sakkizta miniatyura bor

[Minorsky 1958, 56-57].

5. Parijdagi Fransiya Milliy kutubxonasida 978-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan to'plamda Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonidagi Shayx San'on qissasidan keyin ko'chirilgan Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul-asror" asari uchun oltita miniatyura ishlangan [Blochet 1933, 116].

Hamid Sulaymonov tomonidan "Alisher Navoiy asarlariga ishlangan rasmlar" [Сулаймонов 1982, 98] nomli albom bilan Fransiya Milliy kutubxonasi dagi 978-raqamli qo'lyozmadagi miniatyuralarni qiyosan o'rghanish asnosida quyidagilar ma'lum bo'ldi: "Alisher Navoiy asarlariga ishlangan rasmlar" nomli albomdagi 195, 196, 197-raqamli miniatyuralar "Lison ut-tayr"ga tegishli. Biroq, yanglish tarzda 198, 199, 200-raqamli miniatyuralar ham Navoiyning "Lison ut-tayr" idagi "Shayx San'on"ga oid rasm sifatida mazkur albomga kiritilgan. Balki bunga sabab Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostoni bilan Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul-asror" asari bir jidda ketma-ket yozilib, to'plam shaklida berilgani uchun bo'lsa kerak.



1-rasm. "Pulini yo'qtg'an kishi" hikoyati. Haydar Xorazmiy "Gulshan ul-asror".
Fransiya milliy kutubxonasi, 978-raqamli qo'lyozma, 33^a bet.

Majmuadagi uchta miniatyura Haydar Xorazmiy “Gulshan ul-asror” asari uchun ishlanganligi miniatyuralarning chetiga yozilgan baytlar va ikki manbani solishtirish orqali ayon bo'ladi. Jumladan, “Pulini yo'qotg'an kishi hikoyati” (1-rasm)masnaviysining *Yo'lg'a chorlattiyu qildi navid, / Tobmayin ul naqtidin uzdi umid* [Xorazmiy, 32^a]

بوليغه چارлади وقيلди نويد
تابماين اول نقдидин اوздى اوميد

baytidan keyin keyin ikki manbani qiyoslanganda, ya'ni “Alisher Navoiy asarlariga ishlangan rasmlar” albomidagi 198-rasm va Fransiya milliy kutubxonasidagi 978-raqamli qo'lyozma rasmi bilan bir xil. Ushbu qo'lyozmaning 33^a sahifasining yuqori qismida ushbu bir bayt yozilgan:

*Dedi kim: -Ey Qodiri parvardigor,
Borchaning asrori senga oshkor.*

دیدی کیم ای قادری پروردگار
بارچانیگ اسراری سینگه اشکار

Rasmning pastki qismida ushbu bir bayt keltirilgan:

*Tobmasun ul necha diramdin nasib,
Sayyidu mufti-yu faqir-u g'arib!* [Xorazmiy, 33^a]
تابمسون اول نیچه درامдин نصیب
سیدو مفتی و فقیرو غریب

Yana “Bo'z to'quvchi kampir va bazzoz hikoyati” (2-rasm) masnaviysining *Ko'rди bu bazzoz bo'zini ochib, / Purquradi bir necha tukruk sochib* [Xorazmiy, 40^b]:


كوردى بو بزار بوزىنى آچىپ
بورقولىرى بىر نىچە توکروك ساچىپ

baytidan keyin ikki manba qiyoslanganda, 199-rasm va Fransiya milliy kutubxonasidagi 978-raqamli qo'lyozma surati bilan bir xil. Ushbu qo'lyozmaning 41^a sahifasi yuqori qismida quyidagi bir misra yozilgan:

*Kim, momug'i pastu iypidur yo'g'on,
Ким мамуги پست و اپى دور يوغان*

Rasmning pastki qismida ushbu bir bayt misra yozilgan:

Bo'zni oshuqib ne kerak to'quq'on [Xorazmiy, 41^a].
بوزچى اشوقوب نى كيراك توقوغان



2-rasm. “Bo’z to’quvchi kampir va bazzoz” hikoyati. Haydar Xorazmiy “Gulshan ul-asror”. Fransiya milliy kutubxonasi, 978-raqamli qo’lyozma, 41^a bet.

Shuningdek, “Mahmud G’aznaviy haqida hikoyat” (3-rasm) masnaviysining *Shoh ko’rib sachradi otdin ravon, / Turdi adab sharti bila bir zamон* [Xorazmiy, 47^a]:


شاه کوروب سچرادی آندин روان
بوردی ادب شرطی بیله بیر زمان

baytidan keyin ikki manba qiyoslanganda, 200-rasm va Fransiya milliy kutubxonasidagi 978-raqamli qo’lyozma surati bilan bir xil. Qo’lyozmaning 48^a sahifasining yuqori qismida ushbu bir misra yozilgan:

Pir anga qilmadi hech iltifot,
پیر انکه قیلمادی هیچ النقفات

Rasmning pastki qismida esa ushbu bir misra yozilgan:

Ne dedi: – O’ltur! Ne surub dedi: – Ket! [Xorazmiy, 48^a].
نى دىدى اولتور نى سوروب دىدى كىت



3-rasm. "Mahmud G'aznaviy haqida hikoyat". Haydar Xorazmiy "Gulshan ul-asror". Fransiya milliy kutubxonasi, 978-raqamli qo'lyozma, 48^a bet.

Qo'lyozmada berilgan miniatyurani qaysi o'rinda, qaysi voqealarda bayonida berilgani, ya'ni asar matnidagi pozitsiyasiga qarab o'rganish zarur. Asardagi muayyan voqealarda miniatyura chizgan rassom yoki unga joy tashlab ketgan kotib ana shu rasm o'rnini tanlashi bilan matn va lavhaga munosabatda bo'ladi. Navoiy "Xamsa"siga ishlangan miniatyuralar aksariyat hollarda talqin etilgan lavha bilan yonma-yon berilganligini kuzatish mumkin [Сулаймон 1970, 6].

Doston matnida miniatyuralar nomuvofiqligi faqat Alisher Navoiy asarlari emas, balki xamsanavislardan dostonlariga ishlangan miniatyuralarga ham xos. Masalan, Xusrav Dehlaviyning "Majnun va Layli" dostonida Majnun otasi bilan cho'lda uchrashadi. Rassom esa bu uchrashuvni bog'da tasvirlagan. Manbashunos olim A.Erkinov ta'kidlaganidek, "...dostonlardagi muayyan lavhalarga ishlangan miniatyuralarning, umuman, umuman miniatyurining

badiiy asar talqinidagi, muallif g'oyasini ochishdagi o'rni kattadir [Эркинов 2018, 239].

Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul-asror"iga ishlangan suratlar ham asar mazmunidan kelib chiqqan holda matnga mos joylashtirilganini ko'rish mumkin. Fransiya milliy kutubxonasida saqlanayotgan "Gulshan ul-asror" asarining 978-raqamli qo'lyozmasiga ishlangan rasmlarni talqin qilishga harakat qilamiz.

Quyida mazkur uchta rasm tadqiqi keltiriladi.

Birinchi rasm tadqiqi: "Alisher Navoiy dostonlariga ishlangan rasmlar" albomida quyidagicha talqin etilgan: "Shayx San'on bozorda".

978-raqamli qo'lyozmaning 33^a sahifasiga joylashtirilgan rasmga nazar qilgan kishi ikkita do'konni ko'radi, birida qassob go'sht sotmoqda, ikkinchisida nonvoy non sotish bilan mashg'ul. Yanada yaxshiroq nazar tashlansa, suratning markazida masnaviyining birinchi baytida ifoda etilgan kishining rasmi ko'zga tashlanadi. Baytda:

*Forsda bir fors chobuk suvor,
Shahr ichinda qilur erdi go'zor.
Fo'tasida bog'liq edi necha siym,
Fo'ta bila soldi yo'l uzra girm* [Xorazmiy, 33^a].

Fors mamlakatida bir suvoriy shahar ichida sayr qilib yuribti. Fo'tasida bir necha tilla bor edi. Fo'ta – belga aylantirib olinadigan mato, ipak o'rama belbog' ma'nosini ifodalaydi. Rasm markazidagi kishi belida karmonchaga o'xhash narsani bog'lab olgan, naqd pullarini yo'qotib, uni qidirmoqda. Baytda:

*Yo'lg'a chorlattiyu urdi navid,
Tobmayin ul naqtidin uzdi umid* [Xorazmiy, 33^a].

Atrofda yana darvesh, faqir va yuqori martabali kishi ot mingan.

*Sayyid-u mufti-yu faqir-u g'arib!?
Ul dam ochurg'onda ango bir fuzul* [Xorazmiy, 33^a].

Bu foniy dunyoda har bir inson o'z ishi, o'z tashvishi bilan ovora bo'lib yuribdi. Ya'ni kimdir, non sotish bilan, yana kimdir go'sht sotish, faqir-u kambag'allar qornini to'yg'izish bilan band. Sayyid va muftiyalar ham o'z tashvishi bilan yurganligini rassom o'ziga xos tarzda tasvirlaydi. Bu haqida suratning tepe qismiga ikki misra va pastki qismiga ikki misra yozib qo'ilgan:

*Dedi kim: – Ey Qodiri parvardigor,
Borchaning asrori senga oshkor.
Tobmasun ul necha diramdin nasib,
Sayyid-u mufti-yu faqir-u g'arib!?* [Xorazmiy, 34^a].

Ya’ni, barchaning ko’nglida nima borligini barcha ilmlarning bilguvchisi Parvardigorning O’ziga ma'lumdir, hattoki, yarim tunda xarsang ustida ketayotgan chumolining ham nima haqida o’ylayotganini bilguvchi ham O’zidir mazmunidagi yuqoridagi baytlarga mos miniatyura ishlashga harakat qiladi.

Ikkinchি rasm tadqiqi: “Rasta”, “Alisher Navoiy dostonlariga ishlangan rasmlar” albomida quyidagicha talqin etilgan:

Haydar Xorazmiyning ushbu hikoyati uchun asarning boshqa qo’lyozma nusxalarida ham miniatyura ishlangan. Jumladan, Vladimir Minorsky Dublindagi Chester Beatty kutubxonasida saqlanuvchi qo’lyozma asarlar katalogida 433-raqamli qo’lyozma asar nusxasi haqida qisqacha tavsif berib, unda sakkizta miniatyura borligini ta’kidlaydi. Ulardan ikkitasi “Bo’z to’quvchi kampir” hikoyatiga bag’ishlangan bo’lib, ularni quyidagicha talqin qiladi: 2-rasm: 16^b (sahifa). To’qilgan narsalarni sotuvchi, kampir olib kelgan bo’zga oz miqdorda pul taklif qiladi. Bir keksa odam jarayonga guvoh bo’ladi. 3-rasm: 18^a (sahifa). Savdogar matoni foyda bilan sotgan bo’lsa, chol ko’proq qiymatga ega bo’lish uchun sotuvchining qutisiga solib qo’yishni iltimos qiladi. [Minorsky 1958, 56-57].

Fransiyadagi 978-raqamli qo’lyozmaning 41^a sahifasida joylashgan “Bo’z to’quvchi kampir va bazzoz hikoyati” masnaviysi uchun ishlangan miniatyurani kuzatsak, Vladimir Minorskiy ta’rif qilgan manzarani ko’rish mumkin. Farqi shuki, 978-raqamli qo’lyozmada Minorskiy ta’kidlagan ko’rinish bitta rasm orqali ko’rsatilgan. Ya’ni, 978 nusxadagi manzarani quyidagichi talqin qilish mumkin. Hikoyat ushbu baytlar bilan boshlanadi:

*Ko’fada bir piri laduniy sabaq,
Sayr eta bozorg’a qo’ydi ayaq* [Xorazmiy, 41^a].

Umumiy manzarada bozor tasvirlangan. Ko’fa bozorida bir shayx sayr etib yuribdi. Unda ikkita do’kon tasvirlangan bo’lib, birinchisida do’kon rastasida ikkita erkak, birining soqoli oq, ikkinchisining soqoli qora. Ikkalasining ham boshida sallasi bor. Oq soqolli kishi yoshroq savdogarning yuziga tikilib turibdi. Yosh savdogar turli xil kiyim, matolar sotib o’tiribdi, pastda esa

qari kampir oq bo'zdan tikilgan matosini savdogarga sotmoqda. Suratda kampir bazzozga bo'zini burib turganini hikoyat muallifi baytda shunday ifodalagan:

*Bo'zini bu bazzozg'a berdikim: – Ol,
Har na baho bo'lsa ilgima sol! [Xorazmiy, 41^a].*

Ikkinchisi do'kondagi savdogar turli xil idishlar, ko'zachalar, kosa-piyolalar sotish bilan mashg'ul. Uning yonida esa yoshi ulug'roq kishi u bilan bir ko'zani savdolashyapti. Yana bozorda bir kishi qo'lida savat, savatda esa anor va mevalar sotmoqda. U bilan bir soqollari oq-qora kishi nabirasiga mevalardan olib berish uchun savdolashmoqda. Rasmda yana ikki kishi shunchaki bozorni aylanib yuribti.

Rassom ushbu miniatyuraning yuqori qismi o'ng tomoniga va past qismi chap tomoniga ushbu ikki misrani yozadi:

*Kim, momug'i past-u yipidur yo'g'on,
Bo'zchi oshuqib ne kerak to'quq'on.*

Ya'ni, bu bayt bilan rasmni solishtirsak shuni anglashimiz mumkinki, savdogar bo'z to'quvchi kampirning mehnatini past baholab, uning bo'zini arzonga olmoqchiligi, buni kuzatib turgan kishi buadolatsizlikka chiday olmay voqeaga aralashadi.

*Momug'idur pilladin ortuq zarif,
Ipligi katon ipidin ham latif!
Puxta-u hamvor to'qulg'on bo'zi,
Ko'rmaq arusidin arig'roq o'zi [Xorazmiy, 41^b].*

Bo'zchi kampirning bo'zi "ipakdan ham nozik, ipi esa katton-paxta ipidan ham latif", deya ta'riflagandan keyin bo'zning narxi oshib ketib, ipakning narxida sotadi. Masnaviyning so'ngida muammo hal bo'lganligini ushbu baytda tasvirlaydi:

*Jazb qilib tobti muammo kushoy,
Urdi nakim, hosilina pushti-poy [Xorazmiy, 41^b].*

Minorskiy ta'riflagan Dublinda saqlanayotgan nusxa bilan o'xshash bo'lishi mumkin (Biz ushbu qo'lyozma nusxani ko'rishga muvaffaq bo'lmadik).

Uchinchi rasm tadqiqi: "Alisher Navoiy dostonlariga ishlangan rasmlar" albomida quyidagicha izohlangan: "Sahobalar xasta shayx San'on huzurida". Ushbu rasmni yana bir manba "Alisher Navoiy asarlarining badiiy qo'lyozmalari" nomli albomida

boshqacha talqin qilingan: "Do'stlar xristian qizga baxtsiz oshiqlikda nochor bo'lgan shayx San'on huzurida" [Сулаймон 1981, 3].

Minorskiy Mahmud G'aznaviy hikoyatiga ishlangan suratni shunday talqin qilgan: 6-rasm: (26^a). Sulton Mahmud G'aznaviy (Shoh Abbos nomidan vakil) o'z ozodligini maqtagan darvesh oldida hayratda. Podshohning ikki xizmatkori, biri kamon va o'q, ikkinchisi otini ushlab turardi [Minorsky 1958, 56-57]

978-raqamli qo'lyozmaning 48^a sahifasiga joylashtirilgan surat ham Minorskiy ta'fiflagan suratga o'xhash.

Suratning tepe qismi o'ng tomonida ushbu birinchi va pastki qismi chap tomonida ikkinchi misrasi yozib qo'yilgan:

*Pir anga qilmadi hech iltifot,
Ne dedi: – O'ltur! Ne surub dedi:– Ket!* [Xorazmiy, 48^a].

Ushbu bayt bilan rasmning nima aloqasi borligini talqin qilib ko'ramiz. Bu hikoyat Mahmud G'aznaviyga bag'ishlangan masnaviy bo'lib, unda shoh qish kunlarining birida sayr qilib yurib, bir darveshni ko'rishga shoshadi:

*Yetti, ichinda ne ko'rар, bir qari,
Sochi parishon, chiroyi sobsari*[Xorazmiy, 48^a].

Yetib kelib qarasa, rangi za'faron, sochlari parishon bir kishi ekan. Yuqoridaq bayt mazmuniga razm solsak, sochlari to'zg'igan bir kishi yerda yotibdi. Uning atrofida esa Minorskiy tasvirlaganidek manzara: "Podshohning ikki xizmatkori, biri kamon va o'q, ikkinchisi otini ushlab turardi" [Minorsky 1958, 56-57].

Rassom pirning sochlari to'zg'igan va darveshsifat ko'ri-nishda tasvirlashga harakat qilgan. Minorskiy: "Sulton Mahmud G'aznaviy (Shoh Abbos nomidan vakil) o'z ozodligini maqtagan darvesh oldida hayratda" qolib, lol-u hayron bo'lib turganini o'ziga xos tarzda talqin qigan. Shoh uning oldiga kelib turganda unga darvesh shunday murojaat qiladi:

So'rди:-Bu kelmakda muroding nedur?!
Ne kishisen, G'aznada oting nedur?! [Xorazmiy, 48^a].

deb so'raydi. Shoh: "Men bu yerda toat-ibodat qilishga joylarni egallash uchun keldim. Sen bu yerda yotib olib, shu tarzda tirikchilik qilyapsanmi", - deganida, pirning g'azabi kelib:

*Rizq iyosi yoz-u kuz-u va yo qish,
Vositasiz qildi meni parvarish!* [Xorazmiy, 48^a].

Rizq Egasi meni seningdek biror narsaga muhtoj qilib

*Faqr-u fano davlatida ul g'ani,
Qilmadi muhtoj saningtek mani!* [Xorazmiy, 48^a].

Hikoya so'ngida shoh aytgan gaplaridan pushaymon bo'ladi:

*Shoh bo'lib so'zlaganidin xijil,
Qo'bti-yu ketti, evina munfa'il* [Xorazmiy, 48^b].

Xulosa

XIV-XV asrlar o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini qo'lyozma holatda ko'paytirish ishlarida, qo'lyozmalarni bezatish, ularga miniatyura ishslash rivojlangan davr hisoblanadi. Ajdodlarimiz tomonidan yozilgan dunyoga mashhur qimmatbaho, miniatyura ishlangan nusxalarning aksariyati xorijiy qo'lyozma fondlarda saqlanadi. Shu jumladan, hozirgi zamonda mumtoz asarlarga ishlangan miniatyura san'atinining nozik qirralarini talqin qilish o'sha davr adabiyotining suratlar orqali ham ma'naviy-ma'rifiy ta'sir o'tkazib kelganini ko'rsatadi. Manbalardagi miniatyuralarni asl nusxalari bilan qiyoslash esa asarning san'at asari sifatidagi qiymatini yanada oshiradi.

Adabiyotlar

- Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати (АНАТИЛ). 1984.
Тўрт томлик. Учинчи том. Тошкент.
- Баймиева В. Ю. 2016. "Жанр миниатюры в русской литературе XX века". *Филологические науки* 9(63): 3. Тамбов: Грамота.
- Blochet, Edgard. 1933. *Bibliothéque Nationale Catalogue des Manuscrits Turcs II*. Paris: Bibliothéque Nationale.
- Ҳайдар Хоразмий. Махзанул-асрор ("Гулшанул-асрор"). Қўлёзма. Франция Миллий кутубхонаси. № 978.
- Gözütok, Avni. 2008. *Haydar Tilbe Mahzenü'l-Esrâr*. Erzurum: Fenomen Yayınları.
- Квятковский А. П. 1966. *Поэтический словарь*. Москва: Сов. Энциклопедия.
- Полякова, Е.А., Раҳимова, З.И. 1987. *Шарқ миниатюраси ва адабиёти*. Тошкент.
- Minorsky, Vladimir. 1958. *The Chester Beatty Library A Catalogue of the Turkish Manuscripts and Miniatures*. Dublin: Hodges figgis & CO. LTD.
- Rieu, Charles Pierre Henri. 1888. *Catalogue of The Turkish Manuscripts in Britis Museum*. London: Gilberi and Rivington, Limited, St. John's Houer Clarkenwell Road.
- Serkan, Çakmak. 2019. "Mahzanul Asror'un Uygur harfli Ali Shah Bahshi'nin

bir nusxasi". Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi - Journal of Turkish Researches Institute. TAED-66.

Сулаймон, Ҳамид. 1981. *Навоий асарларининг бадиий қўлёзмалари*. (Альбом). Тошкент.

Сулаймонов, Ҳ., Сулаймонова, Ф. 1982. *Алишер Навоий асарларига ишланган расмлар: XV-XIX асрлар*. (Альбом). Тошкент: Фан.

Сулаймон, Ҳ. 1983. *Алишер Навоий достонларига ишланган расмлар*. (Альбом). Тошкент: Фан.

Сулаймон, Ҳ, Сулаймонова, Ф. 1983. *Амир Ҳусрав Деклавий асарларига ишланган расмлар*. (Альбом). Тошкент: Фан.

Эркинов, А. 2018. *Алишер Навоий "Хамса"си талқини манбалари (XV-XX аср боши)*. Тошкент: Tamaddun.

On the miniatures worked to the manuscripts of Haydar Khorazmi's "Gulshan ul-asrar"

Jamoliddin Juraev¹

Abstract

